

ANDIJON DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI OFTALMOLOGIYA KAFEDRASI



**Kafedra mudiri tibbiyot fanlari doktori,
professor**

AZIZBEK FAZILOVICH IKRAMOV

Tel: +99890-269-01-00

E-mail: ikromov.a.f@mail.ru

OFTALMOLOGIYA KAFEDRASI TARIXI VA FAOLIYATI

Andijon davlat tibbiyot instituti oftalmologiya kafedrasini 1959-yilda viloyat klinik shifoxonasida tashkil topgan.

Kafedra Andijon davlat tibbiyot instituti klinikasining 2-bo'lim 1-qavatida joylashgan.

Kafedraning umumiy joylashish maydoni 1950 kv.m.dan iborat bo'lib, zamonaviy talab darajasida jihozlangan. 7 ta o'quv xonalari: 1ta kafedra mudiri xonasi, 3 ta dotsentlar xonasi, 3ta assistentlar xonasi mavjud.

Kafedra 1994-yildan hozirgi kungacha kafedra t.f.d., professor A.F.IKRAMOV tomonidan boshqarib kelinmoqda.

Xadjimuxammedov Xamidulla Koraboevich 1960-yildan 1976-yilgacha Andijon davlat tibbiyot instituti ko'z kasalliklari kafedrasini mudiri bo'lib ishlagan.

Faoliyati davrida bo'limda antiglaukomatoz tashrixlarni takomillashtirgan va yo'lga qo'ygan.

Olgan mukofotlari. Sog'liqni saqlash a'lochisi, 1981-yili Respublikada xizmat ko'rsatgan shifokor unvoni, «Mehnat faxriysi» unvoni, Shuhrat medali bilan taqdirlangan.

23ta chop etilgan ilmiy maqolasi bor. Shu davrlarda Andijon viloyat bosh oftalmolog vazifasini ham bajargan.

O'zbekiston Respublikasi oftalmologlar ilmiy jamiyatining hay'ati a'zosi.

Bu davrda kafedrada dotsent Batkaeva Nailya Xamidovna, assistent Narınskaya Bella Veniaminovna, Xamidova Matlyuba Xamidovnalari ishlagan.

Qodirova Karima Qodirovna. 1978-yilda ADTI ko'z kasalliklari kafedrasini mudiri bo'lib ishlagan. 1996-yilda qariyalik nafaqasiga chiqdi.

Olgan mukofotlari. 1964-yili Sog'liqni saqlash a'lochisi, 1981-yili Respublikada xizmat ko'rsatgan shifokor unvoni, 1984-yili «Mehnat faxriysi» unvoni, bir qator faxriy yorliqlar bilan ta'dirlangan.

30ta ilmiy maqolasi chop etilgan.

Bu davrda kafedrada dotsentlar Batkaeva Nailya Xamidovna, assistentlardan Abduxalikov Xabibullo Dushaboevich, Qosimova Matlyuba Qosimovnalari ishlagan.

Xudayberdiev Alisher Raximovich. 1984-1991-yillarda ADTI ko'z kasalliklari kafedrasini mudiri bo'lib ishlagan. Kafedrada ish faoliyati davrida 3000 dan ortiq antiglaukوماتoz va kataraktani ekstraktsiyasi tashrixlarini bajargan. Ko'z kasalliklarida birinchi bo'lib regional limfoterapiyani yo'lga qo'ygan.

Rahbarligi ostida 40 dan ziyod ilmiy maqolalar chop etilgan. 50 dan ortiq ilmiy maqolasi chop etilgan.

Bu davrda assistentlardan Jaloldinov Sirojiddin Jaloldinovich, Tuxtaboev Isroil Tuychievich, Mirzaeva Roza Zariddinovna, Axmadjonova Aziza Zakirovnalari ishlagan.

Abduxaliquov Xabibulla Dushaboevich. 1991-1994-yillari ADTI ko'z kasalliklari kafedrasini mudiri bo'lib ishlagan. Ish faoliyati davrida ko'z va yordamchi apparatidagi plastik jarrohlik tashrixlarini takomillashtirgan va yo'lga qo'ygan.

1997-2003 yillari ADTI VMOF ko'z kasalliklari kafedrasida kurs mudiri bo'lib ishlagan. 20 dan ziyod ilmiy maqolalari mavjud.

Bu davrda Qosimov Axmadjon Kamoliddinovich, Muxamedova Xikoyat Mirzabekovnalari ishlagan.

Kafedra mudiri A.F. Ikramov rahbarligida 15 ta magistrlik dissertatsiyalari himoya qilingan.



KAFEDRA BUGUNGI KUNDA

Kafedra mudiri A.F.Ikramovning faoliyati davrida skleroplastika, keratotomiya, iridotsikloretraksiya tashrixlarini takomillashtirdi va yo'lga qo'ydi. 16 yil davomida kafedrada 2 ta doktorlik dissertatsiyasi, 1ta fan nomzodlik dissertatsiyasi himoya qilindi. Ko'z kasalliklarida regional limfatikterapiya usullarini qullash yo'lga qo'yildi va takomillashtirib kelinmoqda. Hozirgi kunda A.F.Ikromov ilmiy rahbarligidagi 2ta fan nomzodlik dissertatsiyasi ximoyaga topshirilgan.

Bu davrda dotsentlar Xakimova Zulxumor Karimovna, Mamatxujaeva Gulnora Najmiddinova ishlagan.

Hozirgi kafedrada tibbiyot fanlari doktori, professor Ikromov Azizbek Fozilovich, tibbiyot fanlari nomzodi, dotsentlar: Qosimov Axmadjon Kamoliddinovich, Mamatxujaeva Gulnora Najmiddinovna, assistentlar: tibbiyot fanlari nomzodi Mamasoliev Zoxidjon Nematovich, katta o'qituvchi Qodirov Muxammadumar Shokirovich, assistentlar : Jaloliddinov Sirojiddin Jaloldinovich, Mirzaeva Roza Zariddinovna, To'xtarova Nodira Avazbekovna, Qurbanova Zarina Ravshanovna, Ikromov Otabek Azizbekovich, Ikromov Durbek Azizbekovich, hamda Qodirov Akmaljon Dilmurodovich faoliyat yuritib kelmoqdalar.

KAFEDRANING O'QUV-USLUBIY FAOLIYATI



Kafedra yig'ilishida o'quv jarayonining muhokamasi

Kafedrada muntazam ravishda o'quv jarayoni sifatini oshirish maqsadida yig'ilishlarda ilmiy yangiliklar, davolash standartlari, oliy ta'lim vazirligi tomonidan berilgan yangi o'quv pedagogik texnologiyalar muhokama qilinib, o'quv jarayoniga tatbiq etiladi.

Talim sifatini oshirish maqsadida kafedrada ochiq maruza, integral maruza va ochiq amaliy mashg'ulotlar olib borilmoqda. Kafedrada o'quv-uslubiy majmua yaratilgan.

KAFEDRANING ILMIY ISHLARI

Kafedraning ilmiy yo'nalishi bo'yicha oxirgi 5 yillik ichida 2 ta darslik, 5 ta monografiya, 6 ta o'quv qo'llanma, 46 ta o'quv-uslubiy qo'llanma yaratildi. Matbuotda, nufuzli tibbiyot jurnallarida 12 ta maqola va ko'plab tezislar chop etildi. 2 ta innovatsion loyiha tayyorlandi.

Oftalmologiya kafedrasini hozirgi kunda ilmiy ishlarini asosan quyidagi yo'nalishlar asosida ish olib bormoqda:

1. Farg'ona vodiysida ko'z kasalliklarini har xil tashqi muhit ta'sirida kechishini o'rganish.
2. Ko'z kasalliklarini majmuiy davolashda regional limfatikterapiya usullaridan foydalanish va uni takomillashtirish.
3. Ko'z kasalliklar strukturasiini populyatsion o'rganish.

4. Fargona vodiysida glaukoma kasalligini tarqalishini va uni klinik kechishini o'rganish.

Kafedrada 2009-yil davomida rishilgan natijalar

Dotsent Qosimov A.K. «O znachenii meteogelio klimaticheskix faktorov i geofizicheskix ritmov v formirovanii i techenie glaukom v usloviyax Ferganskoy dolini» mavzusida doktorlik dissertatsiyasi yuzasidan glaucoma kassalligini ushbu regionda tarqalishini, meteogeliomuhit ta'sirini ushbu kasallikda kechishini o'rganish. Tabiatdagi turli hil elektromagnit to'lqinlarini xastaliklari kechishiga ta'siri va xokazolarni o'rganish rejalashtirilgan holda ushbu ilmiy ishni davom ettirmoqda.

Dotsentn G.N.Mamatxujaeva «Sil kasalligida ko'ruv a'zoidagi o'zgarishlari» mavzusida doktorlik dissertatsiyasi yuzasidan materiallar yig'moqda.

Katta o'qituvchi QodirovM.Sh. «Qandli diabet kasalligida ko'zdagi o'zgarishlar» mavzusi asosida nomzodlik dissertatsiyasi yuzasidan ish olib bormoqda.



Viloyatdagi davolash– profilaktika muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan mutaxassislarga tashkiliy-uslubiy yordam ko'rsatish malakasini oshirish maqsadida oftalmologlar jamiyati tashkil etilgan. O'zbekiston Respublikasi SSV bosh mutaxassislari va ADTI kafedralari yetakchi professor, dotsent, ilmiy xodimlari va

mutaxassislari bilan hamkorlikda klinik konferensiyalar, jamiyat yig'ilishlari o'tkazilmoqda.



Amaliy mashg'ulotda.

Kafedra xodimlari Andijon, Namangan va Farg'ona viloyatlari tumanlari otaliq ishlarida faol qatnashadilar. Rejagaasosantashkiliy, uslubiy, davolash profilaktika otaliq ishlari, sanitar-oqartuv ishlari olib boriladi, sog'lom turmush tarzi, turli xil ko'z kasalliklarining oldini olish mavzularida targ'ibot ishlari muntazam olib boriladi.

Kafedra xodimlari tomonidan ratsional takliflar va ularni amaliyotga tatbiq etilishi ta'minlangan.

Kafedra xodimlari tomonidan Andijon viloyati Shaxrixon, Ulugnor va Marhamat tumanlarida axolini tibbiy ko'rigdan o'tkazilib, kerakli maslaxatlar berib borilmoqda.